



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 5 (7)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

5

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Minojiddinov A.A. Meva-sabzavot tarmog‘i korxonalarini boshqarishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarni takomillashtirish yo‘llari	8
Mirzayev A.T., Dilnozaxon M. O‘zbekistonda turizm marketingi samaradorligini baholash va uni takomillashtirishning integratsiyalashgan mexanizmi.....	12
Shavkatov A.Sh. O‘zbekistonda kichik biznes rivojlanishining institutsional va makroiqtisodiy asoslari.....	16
Махамаджанов М.М. Инновационная трансформация банковского сектора Узбекистана: общесистемные тенденции и финансовые результаты.....	20
Sativaldiyeva G.X. IFRS 16 “Ijara” xalqaro standartiga muvofiq ijara hisobidagi o‘zgarishlar.....	24
Ismailov X.M. Aloqa korxonalari moliyaviy barqarorligini ta‘minlash metodologiyasini takomillashtirish masalalari.....	28
Yusubov I.I. Mintaqada iqtisodiyotni barqarorlashtirishda raqamli xizmatlarning rivojlanishi.....	32
Saidaxmedov N.X. Paxta-to‘qimachilik klasterlari faoiyatini shakllanishi va rivojlanishining zamonaviy nazariyalari.....	35
Istamqulov D.Q., Danyarova F.B. Milliy iqtisodiyotga xorijiy investitsiyalarni jalb qilishni takomillashtirish yo‘llari.....	40
Aipova I.I. Resurs samaradorligini baholashning nazariy usullari va ko‘rsatkichlari.....	43
Mirzaraximova A.A. Tijorat banklari tomonidan aloqa sohasini moliyalashtirish samaradorligini oshirish yo‘llari.....	49
Xalmirzaev A.A. Yer va suv resurslaridan samarali foydalanishda hududiy ixtisoslashuvning ahamiyati va iqtisodiy samaradorligi.....	53
Sidikov Z.A. Sirdaryo viloyatida sanoatlashtirish jarayonining hududiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga ta‘siri.....	59
Usmanova N.Y. Raqamli iqtisodiyotda menejment qarorlarini qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning roli.....	63
Ergashev R.X., Rajabaliyeva I.A. Transport-logistika infratuzilmasini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish.....	67
Raximova D.S. Barqaror restoran amaliyotlari: oziq-ovqat chiqindilarini kamaytirish va qayta ishlashning innovatsion yondashuvlari.....	70
Narzullayeva X.A. Investitsiya muhiti jozibadorligini oshirishning xalqaro tajribalari.....	76
Muxitdinov Sh.Z. Kichik agrobiznes subyektlarida mahsulotlar eksportini rivojlantirishga ta‘sir etuvchi omillar.....	84
No‘monov O.O‘. Agrotadbirkorlik subyektlarining eksport salohiyatiga ta‘sir etuvchi makroiqtisodiy va mikroiqtisodiy omillarni kompleks baholash.....	88
Yeshimbetov U.X. O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlantirishda tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	92
Raximova K.N. Tadbirkorlik sharoitida yashil biznesni tashkil etish va rivojlantirishining o‘ziga xos xususiyatlari	97
Хошимов П.З., Тўрахожайев Х.Х. Ислоний банкларнинг ишлаш таомойиллари ва ислон молия тизимининг Ўзбекистон иқтисодиётига таатбири.....	100
Sattarov R.A. An integrated methodological framework for evaluating and forecasting interregional economic cooperation: an input-output approach (evidence from Uzbekistan).....	107
Farmanov J.Z. Mintaqada asalarichilik ekotizimining tamoyillari va ekologik-geografik xususiyatlarini takomillashtirish	111
Qurbonov A.B. Janubiy iqtisodiy rayonda qishloq xo‘jaligi orxonlarining tarkibiy o‘zgarishi va agrar kooperatsiyani rivojlantirish yo‘nalishlari.....	114
Тоштемиров Т.Т. Ўзбекистонда кичик тадбиркорлик субъектлари фаолиятини кенгайтиришда солик механизмларида фойдаланиш масалалари.....	119
Arziyev M.A. O‘zbekiston iqtisodiyotini transformatsiyalash sharoitida oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari.....	122
Maxkamova S.Sh. Ekologik innovatsiyalar orqali yerni oqilona boshqarishning tashkiliy va iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	127
Olimova N.X. Yashil moliyalashtirishning rivojlanish tendensiyalari hamda hozirgi amaliyoti: milliy kontekst	137
Zaylobitdinova H.X. Davlat oliy ta‘lim muassasalarining tijorat faoliyatini samarali boshqarish strategiyalari.....	141
Komilov A.I. Evolution of the catering industry in the context of digital technologies.....	145

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Sotvoldiyev N.N. Mamlakatimizda yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda mehnat bozoriga ta'sir etuvchi omillar.....	149
O'rinov A.A. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlari.....	154
Ahmadaliyeva R.A. O'zbekistonda xufyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi.....	158
Uzganbayeva D.T., Alimova Sh.F. The role of investment strategies in transforming small business entities into large corporate structures.....	162
Goziyev M.Sh., Abdufattoyeva M. Sun'iy intellekt asosida iqtisodiy qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish.....	167
Qobilov H., Uzganbayeva D.T. O'zbekiston iqtisodiyotida xususiy tadbirkorlikning ro'li: so'nggi yillardagi islohotlar sharoitida iqtisodiy o'sish va bandlikka qo'shayotgan hissi.....	170
Sotiboldiyeva R., Uzganbayeva D.T. O'zbekistonda xotin-qizlar tadbirkorligini rivojlantirishda moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining ahamiyati.....	174
Маматкулов З.Ш. Хизмат кўрсатиш фаолиятининг шакллантириш ва бошқаришда хориж тажрибаларидан самарали фойдаланишнинг инновацион йўналишлари.....	179
Shamsiddinov P., Uzganbayeva D.T. Iqtisodiyotning raqamlashtirishning afzaliklari va uning oqibatlari.....	185
Qosimov A.S. Jizzax viloyati mahallalarining qayta nomlanishi va demografik jarayonlar va iqtisodiy samaradorlik ko'rsatkichlari.....	189
Qodirov A., Tulaganov E.J., Berdimurodov U.S. Inson kapitalini kapitalizatsiya qilish va samaradorligini oshirish.....	192
Saidkarimova M.I., Sobirov O.A. Sanoat korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo'llari.....	199
Saidova M.J. Sanoat transformatsiyasi sharoitida kichik biznes va tadbirkorlikning o'rni (Andijon viloyati misolida)	203
Юсупов А.С., Пардаев Х.Ф. Динамическое управление международным портфелем акций: механизмы ребалансировки и преимущества глобальной диверсификации в условиях волатильности валютных рынков.....	206
Burxonov J.X., Soliyev I.I. Mehnat bozorini tartibga solishda innovatsion yondashuvlarning xorij tajribasi tahlili.....	213
Xaitbaev J.O. Mintaqa iqtisodiyotini barqarorligini ta'minlashda suv resurslaridan foydalanishning ko'p omilli ekonometrik modellari.....	217
Saidov U.S. Kichik tadbirkorlik subyektlarida ekologik innovatsiyalarni rag'batlantirishning moliyaviy yo'nalishlari.....	221
Nurmaxanmadov N.B. Iqtisodiyotning ekologiyaga ta'sir moyilligining oshib borishi muammosi.....	224
Xudayberdiyev K. Davlat xaridlarida elektron platformalar faoliyatini optimallashtirishda sun'iy intellektga asoslangan moderatsiya mexanizmlarining roli.....	230
Xolxo'jayev E.G'. Davlat xaridini tashkil etishda elektron savdolardan foydalanish samaradorligi hamda imkoniyatlari tahlili.	234
Rustamova F.A. Qishloq joylarda tadbirkorlik subyektlarining iqtisodiy samaradorligini baholash va uni oshirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlari.....	238
Ikromov A. Iqtisodiy jarayonlarni ekonometrik modellashtirishda integro-differensial tenglamalarning o'rni va ularni tadqiq etish.....	241
Sarimsakov B.R., Usmonov J.Q. Xorijiy mamlakatlarda inson kapitalidan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida samarali foydalanish tajribalari.....	245
Maraimov I.R. O'zbekistonda kambag'allikni kamaytirish va aholi turmush farovonligini oshirish.....	251
Yusupov Sh.B. Xorazm viloyatida sanoat korxonalarining iqtisodiy samaradorligini baholash va oshirish yo'llari: 2020–2025 yillar tahlili va 2030 yilga prognoz.....	256
Chintemirova D.Sh. Hududlar kesimida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish tendensiyalari.....	260
Xusanova Z.R. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning samaradorlik ko'rsatkichlari va unga ta'sir ko'rsatuvchi omillar.....	265
Tajiboyev S.O., Gulimboyev S.I. Moliyaviy siyosatning investitsiya muhitiga ta'siri.....	270
Tajiboyev S.O. G'aznachilikda to'lovlarni amalga oshirish.....	275
Xaydarov M., Baxtiyorov I. Innovatsion iqtisodiyot g'oyalari va ularni oliy ta'lim tizimi orqali qo'llashning nazariy asoslari.....	279
Ким Т.В., «Зарубежный опыт развития циркулярной экономики и её роль в формировании ресурсосберегающей модели экономического развития».....	286

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali* 5-son 2026 yil

Saydullayeva R.U. Analysis of financial efficiency and profitability in the green economy: the role of IAS and IFRS standards.....	292
Galatov A.A., Karimova G.A. O‘zbekistonda Islomiy moliyaviy xizmatlar ko‘rsatuvchi nobank tashkilotlar faoliyati va strategik boshqaruv tizimining tahlili.....	296
Tursunov F.U. Oliy ta‘lim sifati monitoringini takomillashtirish mexanizmlarini rivojlantirishning zamonaviy yondashuvlari... ..	300
Yakhshiboev R.E. Retrieval-augmented generative AI for smart learning content.....	303
Ergashev S.A. Sanoat korxonalarini barqaror rivojlantirish mexanizmlarini takomillashtirish: ilmiy-nazariy va amaliy asoslar.....	307
Абдуллаева Р.Ғ., Тажибаева Н.Ф. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларнинг устувор йўналишлари ва ривожланиш истiqболлари.....	311
Sayfullayev J. Why organizations struggle to implement green management practices: key barriers and practical solutions.....	316
Sirojiddinov K.I. Korxoning raqobatbardoshligini baholash usullari.....	319
Ibraximov X.S. Mintaqalarda tadbirkorlik muhitini shakllantirishda kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlashning o‘rni va mexanizmlari.....	324
Tajibayev K.Q. Farg‘ona vodiysida kichik biznes sub’ektlari raqobatbardoshligini oshirishning metodologik asoslari.....	328
Abdulxakimov Z.T. Barqaror rivojlanish evolyusiyasi va tarkibiy qismlari masalalari.....	332
Pazilidinov M.M. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning raqamlashtirish tajribasi.....	337
Жураева М.З., Ахмедов Р.М. Экосистема применения системного подхода в менеджменте транспортной инфраструктуры.....	341
Ахмедов Р.М. Основные требования к разработке системного подхода в менеджменте дорожного хозяйства Республики Узбекистан.....	348
Mamasiddiqova F.X. Qishloq xo‘jaligida mahallalar ixtisosligi: nazariy asoslar, regional tahlil va rivojlantirish istiqbollari.....	353
To‘rayev A.A. Mehnat bozorini texnologik transformatsiyalash sharoitida ishchi kuchi raqobatbardoshligini oshirish mexanizmlari.	358
Солиев И.И. Концептуальные основы институциональной автономии вузов в условиях модернизации системы образования Узбекистана.....	362
Xasanov S.Q. Sanoat korxonalarini rivojlantirishda modernizatsiya va klaster yondashuvining o‘rni.....	365
Murodov A. Aholining real pul daromadlarini va xarid qobiliyatini oshirishning nazariy asoslari.....	369
Карабаев Р.З. Искусственный интеллект в цифровой экономике Узбекистана.....	374
Rasulova Sh.A. Bozor iqtisodiyotida monopoliyaning mohiyati, shakllari va uning O‘zbekiston iqtisodiyotiga ta‘siri.....	378
Salimov A.F., Rasulova Sh.A. Bozor muvozanati va unga ta‘sir ko‘rsatuvchi omillar.....	381
Sattarova G.X. O‘zbekiston logistika bozorida yuk tashish xavflarini sug‘urta orqali kamaytirishning iqtisodiy samaradorligi.....	385
Муродхўжаева Ф.М. Махаллий саноатни шакллантиришда кластер ёндашуви ва 2030 йилгача трансформациянинг прогноз параметрлари (Наманган вилояти мисолида).....	389
Yoqubjonov R.R. Kichik biznes mahsulotlari raqobatbardoshligini oshirishda innovatsion yondashuvlar.....	396
Nasritdinov B.X. Risklarni integral baholash kichik biznesda moslashuvchan boshqaruv tizimi asbobi sifatida	400
Abdurazzoqov H.A. O‘zbekistonda yashil iqtisodiyotga o‘tish jarayonining hozirgi holati va tendentsiyalari.....	406
Turgunov M.M., Soliyev I.I. Milliy innovatsion tizim samaradorligini oshirishning strategik yo‘nalishlari.....	411
Kuzimuratova D.M. O‘zbekiston Respublikasida tijorat banklarining investitsiya faoliyatini rivojlantirish va takomillashtirish.....	414
Soyibjonov I.S. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini yashil iqtisodiyot tamoyillari asosida rivojlantirish.....	419
Axmadjanov I.I. Shaharlar va shahar aglomeratsiyalari mintaqalar va mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining drayveri.....	423
Odinayev G‘.J. Nogironligi bo‘lgan aholi qatlamini strategik sohalarda band qilish loyihalari.....	427
Abduvahobov V.B. Jinoiy daromadlarni legallashtirishga qarshi kurashishning global standartlari va O‘zbekiston tajribasi: kompleks tahlil.....	430
Қўзиёва Н.Н. Билвосита солиқларнинг шаклланиши ва ривожланиб бориши.....	435

**SANOAT TARMOQLARINING INVESTITSION IMKONIYATLARINI BARQARORLIK
INDIKATORLARI ASOSIDA BOSHQARISH MEKANIZMLARI**

**МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ИНВЕСТИЦИОННЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ
ОТРАСЛЕЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ НА ОСНОВЕ ПОКАЗАТЕЛЕЙ
УСТОЙЧИВОСТИ**

**MECHANISMS FOR MANAGING THE INVESTMENT POTENTIAL OF INDUSTRIAL
SECTORS BASED ON SUSTAINABILITY INDICATORS**

O‘rinov Akmaljon Ahmadjonovich, i.f.n., dots.,
Farg‘ona davlat universiteti

Annotatsiya

Mazkur maqolada sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini baholash va boshqarishda barqarorlik indikatorlaridan foydalanishning nazariy hamda amaliy jihatlari o‘rganilgan. Tadqiqotda investitsion salohiyatni shakllantiruvchi omillar tahlil qilinib, barqaror rivojlanishni ta‘minlovchi samarali boshqaruv mexanizmlari ishlab chiqilgan. Shuningdek, barqarorlik ko‘rsatkichlari asosida investitsion qarorlar qabul qilishning asosiy yo‘nalishlari asoslab berilgan bo‘lib, natijalar sanoat tarmoqlarining investitsion jozibadorligi va uzoq muddatli barqarorligini oshirishga xizmat qiladi.

Kalit so‘zlar: sanoat tarmoqlari, investitsion salohiyat, barqarorlik indikatorlari, investitsion boshqaruv, iqtisodiy barqarorlik, rivojlanish strategiyasi, samaradorlik

В данной статье рассмотрены теоретические и практические аспекты использования показателей устойчивости при оценке и управлении инвестиционным потенциалом отраслей промышленности. В ходе исследования проанализированы факторы формирования инвестиционного потенциала и разработаны эффективные механизмы управления, обеспечивающие устойчивое развитие. Также обоснованы основные направления принятия инвестиционных решений на основе показателей устойчивости. Результаты способствуют повышению инвестиционной привлекательности и долгосрочной устойчивости промышленных отраслей.

Ключевые слова: отрасли промышленности, инвестиционный потенциал, показатели устойчивости, инвестиционное управление, экономическая устойчивость, стратегия развития, эффективность

This article examines the theoretical and practical aspects of using sustainability indicators in assessing and managing the investment potential of industrial sectors. The study analyzes the factors shaping investment potential and develops effective management mechanisms to ensure sustainable development. It also substantiates the key directions of investment decision-making based on sustainability indicators. The results contribute to increasing the investment attractiveness and long-term sustainability of industrial sectors.

Keywords: industrial sectors, investment potential, sustainability indicators, investment management, economic sustainability, development strategy, efficiency

Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini samarali boshqarish zamonaviy iqtisodiyotning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Globallashuv jarayonlarining jadallashuvi, raqobat muhitining kuchayishi hamda resurslardan oqilona foydalanish zarurati sanoat sektorida investitsion faoliyatni yangi yondashuvlar asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Ayniqsa, sanoat tarmoqlarining investitsion salohiyatini baholash va boshqarishda an‘anaviy ko‘rsatkichlar bilan bir qatorda barqarorlik indikatorlaridan foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa iqtisodiy,

ijtimoiy va ekologik omillarni uyg‘un holda hisobga olish orqali investitsion qarorlar qabul qilish samaradorligini oshirish imkonini beradi.

Shu nuqtai nazardan, sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish dolzarb ilmiy muammo sifatida namoyon bo‘lmoqda. Mazkur yondashuv sanoat korxonalarining uzoq muddatli barqaror rivojlanishini ta‘minlash, investitsion jozibadorligini oshirish hamda iqtisodiy tizimning barqarorligini mustahkamlashga xizmat qiladi. Shu bilan birga, barqarorlik indikatorlari asosida ishlab chiqilgan boshqaruv mexanizmlari investitsiya resurslaridan samarali foydalanish, risklarni kamaytirish va innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirishda muhim vosita sifatida qaraladi.

Xalqaro amaliyotda Jahon banki, Xalqaro valyuta fondi hamda BMT Taraqqiyot dasturi kabi nufuzli moliya institutlari tomonidan hududlarning strategik tarmoqlarida samarali investitsiya qarorlarini qabul qilishni takomillashtirishga qaratilgan keng qamrovli tadqiqotlar amalga oshirilmoqda. Ushbu tadqiqotlar xalqaro standartlar asosida iqtisodiyot tarmoqlarining investitsion salohiyatini boshqarish usullarini rivojlantirishga xizmat qilib, sanoat tarmoqlarida barqarorlik ko‘rsatkichlari asosida investitsion boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish uchun muhim nazariy-amaliy asos yaratadi.

O‘zbekiston Respublikasida faoliyat yuritayotgan milliy va xorijiy korxonalarining investitsiya faoliyati bo‘yicha hisobotlari xalqaro standartlarga muvofiq, shaffof va ishonchli tarzda shakllantirilmoqda. Bu jarayon biznes muhitini yaxshilash bilan birga investorlar va tadbirkorlar manfaatlarini mustahkamlashga ham xizmat qiladi. BMT tizimidagi United Nations Industrial Development Organization tomonidan e‘lon qilingan “Competitive Industrial Performance (CIP) Index 2022” (2023-yilda chop etilgan) hisobotiga ko‘ra, O‘zbekiston sanoat raqobatbardoshligi darajasi 152 ta davlat orasida taxminan 90-100-o‘rinlar oralig‘ida baholangan. Mazkur natija mamlakat sanoatining rivojlanish bosqichida ekanligini ko‘rsatib, uning global sanoat tizimidagi ulushi hali yetarli darajada yuqori emasligini ifodalaydi. Hisobotda qayd etilishicha, sanoat ishlab chiqarish hajmi va eksport salohiyati ko‘rsatkichlari nisbatan past bo‘lishiga qaramay, qayta ishlash sanoatining ulushi bosqichma-bosqich ortib bormoqda. Shu bilan birga, sanoat tarmoqlarining texnologik darajasi asosan past va o‘rta texnologiyali ishlab chiqarishlar bilan cheklanib qolayotganligi aniqlangan.

O‘zbekiston sanoatining jahon ishlab chiqarishidagi ulushi hamda yuqori texnologiyali mahsulotlar eksporti hozircha past darajada qolmoqda. Biroq so‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan tarkibiy islohotlar, investitsiya siyosatining faollashuvi va sanoatni diversifikatsiya qilish choralari ijobiy o‘lish tendensiyasini shakllantirmoqda. Shu bois sanoat raqobatbardoshligini oshirishda yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish, eksportni kengaytirish va investitsion muhitni takomillashtirish ustuvor yo‘nalish hisoblanadi [25].

Iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalish sifatida «mamlakatda investitsiya muhitini yanada yaxshilash, to‘g‘ridan-to‘g‘ri investitsiyalarni jalb etishni rag‘batlantirish, investorlarning bu boradagi davlat siyosatining izchilligiga bo‘lgan ishonchini mustahkamlash va investorlar bilan ishlashda davlat tuzilmalarining mas‘uliyatini oshirish» [1], «investitsiya loyihalarini o‘z vaqtida va sifatli amalga oshirish mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning, yangi ishlab chiqarish quvvatlari va ish joylarini yaratish, infratuzilmani takomillashtirish hamda hududlarni obodonlashtirish va xalq farovonligi darajasini oshirish» [2] vazifalari quyildi. Ushbu yo‘nalishlar EIZ direksiyalari va xo‘jalik yurituvchi subyektlar uchun investitsion salohiyatni barqarorlik ko‘rsatkichlari asosida boshqarishning ustuvor vazifalarini belgilaydi. Mazkur vazifalar sanoat tarmoqlarida investitsiya samaradorligini oshirish, strategik menejmentni rivojlantirish, real sektor raqobatbardoshligini kuchaytirish hamda investitsiya faoliyatini boshqarishning uslubiy asoslarini takomillashtirish zaruratini asoslaydi.

Sanoat tarmoqlarining investitsion jihatida O‘zbekiston iqtisodiyotining yangi sanoatlashuv bosqichi doirasida, ya‘ni yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni yo‘lga qo‘yish va an‘anaviy tarmoqlarni modernizatsiya qilish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi [22]. Sanoat tarmoqlarining investitsion salohiyatini baholash investitsiya jarayonlarini samarali boshqarishning muhim vositalaridan biridir. Sanoat tarmog‘i iqtisodiy faoliyat turlari tasnifiga ko‘ra bir yoki bir nechta

yo‘nalishlarda faoliyat yurituvchi xo‘jalik subyektlari majmuasini ifodalaydi. Iqtisodiy adabiyotlarda investitsiya salohiyatini o‘rganishda dastlab sohaviy yondashuv ustuvor bo‘lib, u asosan fond yaratuvchi tarmoqlar faoliyati natijalari asosida baholangan. Bu esa yirik sanoat korxonalari rivojlanish darajasiga tayangan baholash usullarining shakllanishiga olib kelgan [4].

Hozirgi kunda mazkur yondashuv investitsion salohiyat tushunchasini ko‘proq «ishlab chiqarish salohiyati» kategoriyasi doirasida talqin qilishga olib kelmoqda. Shu bilan birga, investitsion salohiyatni izohlashda resursli yondashuv keng tarqalgan bo‘lib, unga ko‘ra u investitsiya resurslari va ularning shakllanish manbalari bilan uzviy bog‘liq holda o‘rganiladi. Investitsion resurslar esa kelajakda iqtisodiy, ijtimoiy yoki ekologik samara olish maqsadida kapital kiritish va jamg‘arish jarayonida ishtirok etuvchi moddiy, moliyaviy hamda intellektual manbalar majmuasini ifodalaydi [17].

Ta’kidlash joizki, «salohiyat» tushunchasi sifat va miqdoriy jihatlar birligini ifodalovchi ikki tomonlama xususiyatga ega. Shu nuqtai nazardan, investitsion salohiyatning miqdoriy ifodasi sifatida «investitsiya resurslari» kategoriyasi qaraladi. Demak, sanoat tarmog‘ining investitsion salohiyati mavjud resurslar doirasidagi imkoniyatlarni samarali amalga oshirish orqali yuqori natijalarga erishish qobiliyati sifatida izohlanadi. Investitsion salohiyatni baholashda resursli-natijali yondashuv nafaqat resurslar tarkibini, balki maqsadli yo‘nalishni ham hisobga oladi. Ushbu yondashuvda yalpi mintaqaviy mahsulot dinamikasi va iqtisodiy rivojlanish prognozlarini asosiy boshqaruv parametrlaridan biri sifatida qo‘llanilib, investitsiya resurslaridan foydalanish darajasi hamda ularning rivojlanish tendensiyalarini aniqlash orqali investitsion salohiyat samaradorligini baholash imkoniyati kengayadi [21].

Hozirgi sharoitda investitsiya faoliyatidagi yuqori darajadagi noaniqliklar prognoz hisob-kitoblarining ishonchliligini pasaytiradi. Shu sababli, statik ko‘rsatkichlar investitsion salohiyatdagi dinamik o‘zgarishlarni to‘liq aks ettira olmaydi. Sanoat tarmog‘i investitsion salohiyatini baholashda shakllanayotgan investitsion resurslar, ulardan foydalanish samaradorligi hamda investitsion faollik ko‘rsatkichlarini kompleks tarzda hisobga olish maqsadga muvofiqdir. Investitsion resurslar indikatori sanoat mahsuloti birligiga to‘g‘ri keladigan resurslar bilan ta’minlanganlik darajasini ifodalaydi va uning tarkibiga inson, ishlab chiqarish hamda moliyaviy resurslar kiradi. Investitsion resurslardan foydalanish samaradorligi ko‘rsatkichi esa tarmoqning investitsiyalardan olinadigan daromadlilik darajasi hamda resurslardan maqsadli va natijali foydalanish qobiliyatini aks ettiradi [20]. Hozirgi kunda qabul qilingan investitsiya faoliyatining sifat va miqdor ko‘rsatkichlarini baholash investitsiyalar tuzilmasi, dinamikasi va hajmlarini o‘z ichiga olsa-da [11], tarmoqning investitsion makromuhitdagi o‘zgarishlarga moslashish qobiliyatini to‘liq aks ettirmaydi. Shu sababli, investitsion barqarorlik kategoriyasini aniqlashda avvalo “barqarorlik” tushunchasining mazmuni hamda barqaror tizimga xos xususiyatlar va shartlar e’tiborga olinishi lozim.

Barqaror tizim beqaror ta’sirlarni o‘ziga singdirib, resurslarni samarali va uzluksiz taqsimlashga qodir, buning uchun xavflar aniq prognoz qilinib baholanadi va ularni boshqarish imkonini beradi [10]. Agar bu uchta xususiyatning kombinatsiyasi yoki biror shakli qo‘llab-quvvatlanmasa, u holda o‘rganilayotgan tizim beqarorlik yo‘nalishi bo‘yicha harakat qilishi mumkin va beqarorlik ma’lum bir vaqtda nomutanosiblik va uning «zaifligi» uchun asos yaratishi mumkin. Uchala xususiyatda ham endogen, ham ekzogen elementlar mavjud [12].

Har bir iqtisodiy tizim ochiq va nohiziqli xususiyatga ega bo‘lib, barqarorlik va beqarorlik holatlari almashinuvi bilan tavsiflanadi. Barqarorlik bosqichida tizim muvozanat holatiga yaqin bo‘lib, tashqi ta’sirlarga nisbatan kam sezgirlik namoyon etadi va o‘zgarishlar cheklangan bo‘ladi. Beqarorlik kuchaygan sharoitda esa tizimning tashqi ta’sirlarga sezgirligi ortib, yangi holatlarga o‘tish ehtimoli va murakkablik darajasi oshadi. Bifurkatsiya holatlari tizimning o‘ta beqaror nuqtasini ifodalab, yangi barqaror holatga o‘tish imkoniyatini yuzaga keltiradi. Beqarorlikning pasayish bosqichida esa tashqi ta’sirlarga sezgirlik kamayib, tizim yangi muvozanat holatiga yaqinlashadi. Natijada tizimdagi o‘zgarishlar yo‘nalishi kelajakdagi barqaror holatning shakli va mazmuni bilan belgilanadi [16].

Hududning iqtisodiy tarmoqlariga investitsiyalarni maqsadli taqsimlash va ulardan samarali foydalanish, shuningdek strategik rejalashtirishni izchil amalga oshirish orqali o‘rta muddatli

istiqbolda ijobiy iqtisodiy natijalarga erishish mumkin. Bu jarayonda investitsiya siyosati samaradorligi, iqtisodiyotni modernizatsiya qilish va diversifikatsiyalash darajasi, shuningdek mehnat resurslaridan foydalanish ko‘rsatkichlari asosiy omillar sifatida muhim ahamiyat kasb etadi. Ilmiy-uslubiy yondashuvlarga asoslangan ko‘p omili prognoz modellari doirasida Navoiy viloyati iqtisodiy rivojlanishida 2027-2028 yillarga qadar asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi, aholi bandligi, daromadlar darajasi hamda yalpi hududiy mahsulotning barqaror o‘shish tendensiyasi kuzatilishi prognoz qilinadi. Investitsion faollikning ortishi va resurslardan samarali foydalanish hududning iqtisodiy o‘shish sur‘atlarini ijobiy dinamikada saqlashga xizmat qiladi. Shu bois investitsiyalarni tarmoqlar kesimida ekonometrik modellashni takomillashtirish muhim ahamiyatga ega bo‘lib, u noaniqlik sharoitida investitsiyalarni salohiyatdan kelib chiqib maqsadli taqsimlash, resurslar nomutanosibligini kamaytirish hamda samaradorlikni oshirish imkonini beradi. Bunday modellar tavakkalchilikni baholash, ta’sir etuvchi omillarni aniqlash va ularning o‘zaro bog‘liqligini o‘rganish orqali strategik qarorlar uchun ilmiy asos yaratadi.

Globalashuv sharoitida hududlar iqtisodiy raqobat subyektlariga aylanib, investitsiyalarni jalb etish bo‘yicha faol raqobatga kirishmoqda. O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhiti nisbatan jozibador hududlar qatorida Navoiy viloyati alohida o‘rin tutib, ichki va tashqi investitsiyalarning sezilarli qismi ushbu hududga yo‘naltirilmoqda. Sanoat tarmoqlarining investitsion imkoniyatlarini barqarorlik indikatorlari asosida boshqarish zamonaviy iqtisodiy tizimda resurslardan samarali foydalanish va uzoq muddatli rivojlanishni ta’minlashning muhim yo‘nalishlaridan biridir. Barqarorlik ko‘rsatkichlari iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni kompleks baholash imkonini berib, investitsion qarorlar qabul qilishda noaniqlikni kamaytiradi hamda sanoat tarmoqlarining raqobatbardoshligini oshiradi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, sanoat tarmoqlarida investitsion jarayonlarni barqarorlik mezonlari asosida boshqarish ularning uzoq muddatli iqtisodiy o‘shishini qo‘llab-quvvatlaydi hamda investitsion resurslarning optimal taqsimlanishiga imkon yaratadi. Shu bilan birga, mazkur yondashuv strategik rejalashtirish sifatini oshirish, investitsion xavflarni kamaytirish va innovatsion rivojlanishni rag‘batlantirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, barqarorlik indikatorlariga asoslangan boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish sanoat tarmoqlarining investitsion jozibadorligini oshirishda muhim omil hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 1-avgustdagi “O‘zbekiston Respublikasida investitsiya muhitini tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5495-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 02.08.2018 y., 06/18/5495/1611-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 14-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi investitsiya dasturini shakllantirish va amalga oshirishning sifat jihatidan yangi tizimiga o‘tish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5717-son Farmoni. // Qonun hujjatlari ma’lumotlari milliy bazasi, 15.05.2019 y., 06/19/5717/3132-son; 18.08.2020 y., 06/20/6042/1190-son.
3. Байхонов Б.Т. Ўзбекистон иқтисодиётида инвестицияларни тармоқлараро тақсимлашнинг эконометрик моделлаштириш услубиятини такомиллаштириш, 08.00.06 – “Эконометрика ва статистика” иқтисодиёт фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Т.: 2019. 30-б.
4. Дорошенко Ю.А. Экономический потенциал территории. СПб, Дело и сервис, 1997. — с.123
5. Григорьева С.В. оценка стратегической устойчивости в развитии предприятия. // Вопросы экономике и права. 2013. № 3. с. 33-37.
6. Haavaldsena T., Leadrea O., Voldenb G.H., Lohnea J. On the concept of sustainability – assessing the sustainability of large public infrastructure investment projects. // International Journal of Sustainable Engineering. 2014. Vol. 7. Iss. 1. p. 2-12.
7. Иванова Н.Д., Иванова А.А., Кавылкин Д. Ю., Колесов К. И., Плеханова А.Ф. Вопросы оценки инвестиционного климата и привлекательности экономических систем. // Современные проблемы науки и образования. 2013. № 4. с. 260.
8. Канунников А.И. стратегическое управление: условия устойчивого развития промышленных предприятий // Вестник ОрелГИЭТ. 2012. № 1(19). с. 121-126.

9. Клевцов С.М. Диагностика устойчивости развития промышленного комплекса на основе динамической оценки временных рядов. // Известия Санкт-Петербургского государственного экономического университета, 2015. №3, с.125-129
10. Клевцов С.М., Коревина Л.А., Кравцова М.Г. Прикладные аспекты маркетингового исследования отраслевого рынка в условиях высококонкурентной среды. // Вестник Белгородского университета кооперации, экономики и права. 2014. №2, с.382-388.
11. Кравченко В.Н., Лысенко А.Ю. Диагностика и оценка эффективности основной деятельности предприятия. // Экономика промышленности. 2010. №4 (52). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/diagnostika-i-otsenka-effektivnosti-osnovnoy-deyatelnosti-predpriyatiya> (дата обращения: 09.07.2021).
12. Марыганова Е.А., Назарова Е.В. Макроэкономика. Уч. пос. М.: Экмос, 2011, с.124
13. Mahn K.D. The Impact of Sustainable Investment Strategies // Institutional Investor Journal. 2016. Vol. 25, no. 2. P. 96-102.
14. Общий и специальный менеджмент. // Под ред. А.Л.Гапоненко, А.П.Панкрухина. М.: РАГС, 2000. С.95.
15. Пучкова О.В. Институциональные условия формирования инвестиционной среды: Дис. ... канд. экон. наук: 08.00.01: Самара, 2004 192 с. РГБ ОД, 61:04-8/3843
16. Романова О.А., Нелюбина Т.А. Неустойчивость социально-экономических систем как фактор их восприимчивости к изменениям. // Экономика региона. 2010. с. 211-217.

UDK: 330.34:336.2

O‘ZBEKISTONDA XUFYONA IQTISODIYOTGA QARSHI KURASHISH SAMARADORLIGI

ЭФФЕКТИВНОСТЬ БОРЬБЫ С ТЕНЕВОЙ ЭКОНОМИКОЙ В УЗБЕКИСТАНЕ

THE EFFECTIVENESS OF FIGHTING THE SHADOW ECONOMY IN UZBEKISTAN

Ahmadaliyeva Ruxshonaxon Abrorjon qizi

Farg‘ona davlat universiteti iqtisodiyot yo‘nalishi talabasi

Annotatsiya

Maqolada O‘zbekistonda xufiyona iqtisodiyotga qarshi kurashish samaradorligi tahlil qilinib, uning iqtisodiy tizim, fiskal siyosat va raqobat muhitiga salbiy ta’siri ochib berilgan. xufiyona iqtisodiyotning shakllanish omillari sifatida soliq yukining nisbatan yuqoriligi, institutsional cheklovlar va nazorat mexanizmlaridagi kamchiliklar ko‘rsatilgan. Shuningdek, soliq ma‘murchiligini raqamlashtirish, naqd pulsiz hisob-kitoblarni kengaytirish va tadbirkorlikni legallashtirishga qaratilgan islohotlar samarasi baholangan. Tadqiqot natijalari iqtisodiy shaffoflikni oshirish, norasmiy sektor ulushini kamaytirish hamda institutsional o‘zgarishlarni chuqurlashtirish uchun kompleks va tizimli yondashuv zarurligini asoslaydi.

Kalit so‘zlar: xufiyona iqtisodiyot, soliq siyosati, iqtisodiy shaffoflik, norasmiy sektor, raqamli iqtisodiyot.

В статье анализируется эффективность борьбы с теневой экономикой в Узбекистане, а также раскрывается её негативное влияние на экономическую систему, фискальную политику и конкурентную среду. В качестве основных факторов формирования теневой экономики выделены высокая налоговая нагрузка, институциональные ограничения и недостатки контрольных механизмов. Оценена результативность проводимых реформ, включая цифровизацию налогового администрирования, расширение безналичных расчетов и легализацию предпринимательской деятельности. Результаты исследования обосновывают